

SO'NGI AMIR SAID OLIMXONNING AFG'ONISTONDAGI MUHOJIRLIGI

*Iskandarov Shodiyor Nurdullo o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasining so'ngi vakili Said Amir Olimxonning hayoti asosan Afg'onistonda muhojirlikdagi azob-uqubatlarga to'la hayoti tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Ibrohim laqay, "Hayot-ul-obod", Fotuh qal'asi, Mozori Sharif, rupiy, murassa toji, amir Olimxon, Kobul, ingliz-afg'on urushi.

THE LAST AMIR SAIDOLIMKHAN'S EMIGRATION IN AFGHANISTAN

*Iskandarov Shodiyor Nurdullo o'g'li
Doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov.*

Abstract. In this article, the life of Said Amir Alim Khan, the last representative of the Mangite dynasty that ruled the Bukhara Emirate, is studied based on historical sources.

Key words: Ibrahim Laqay, «Hayat-ul-Abad», Fatuh Castle, Mazari Sharif, rupee, murassa taji, Amir Alim Khan, Kabul, Anglo-Afghan war.

ЭМИГРАЦИЯ ПОСЛЕДНЕГО АМИРА САЙДОЛИМХАНА В АФГАНИСТАН

*Искандаров Шадияра Нурдуллы угли
Докторант Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова.*

Абстракт. В данной статье на основе исторических источников изучается жизнь Саид-Амира Алим-хана, последнего представителя мангитской династии, правившей Бухарским эмиратом.

Ключевые слова: Ибрагим Лакай, «Хаят-уль-Абад», замок Фатух, Мазари Шариф, рупия, мурасса таджи, Амир Алим-хан, Кабул, англо-афганская война.

Kirish. Buxoro xonligida hukmronlik qilgan sulolalardan biri bu mang'itlar sulolasi bo'lib, ular bir yarim asrdan ziyod vaqt davomida 8 ta hukmdor nomlari tarixda o'z izlarini qoldirishdi. Sulolaning so'nggi hukmdori amir Said Olimxonning vatandan yirokda, muhojirlikda kechgan hayoti har doim biz uchun mavhum, sirlil bo'lib keldi. U hukmdor haqida uzoq vaqt o'z isbotini topmagan asossiz ma'lumotlar mavjud bo'lgan va bu ma'lumotlar ilm ahlining amirga nisbatan salbiy fikrga borishiga sabab bo'lib kelmoqda edi. Ammo so'ngi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi natijasida ma'lum bir miqdorda asl tarix ochilmoqda. Bundan tashqari turli mafkuralar o'rtasidagi ziddiyatlar va tashqi bosim amirga katta qiyinchiliklar tug'dirdi.

Said Olimxon 1881-yilda Karmana shahrida tavllud topdi. 13 yoshga to'lgach, otasi Sayyid Abdulahadxonning xohish istagiga ko'ra Rossiya poytaxti Sankt-Peturburgdagi harbiy bilim yurtiga o'qishga junatildi va 1896-yilgacha ta'lim oldi. Bu erda Abdulahadxon ham yoshligida o'qigan edi. O'qishni bitirish munosabati bilan padaribuzrukvari Olimxonni valiaht deb e'lon qiladi. Shundan so'ng Buxoroga qaytib, dastlab Qarshi, keyin Karmanada hokimlik lavozimligida faoliyat yuritadi. Va nihoyat, taqdir taqozosiga ko'ra, 1910 yil dekabrda otasi vafotidan so'ng, 29 yoshida Buxoro taxtiga o'tiradi. [1, 132] Uning hukmronlik davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlarga boy davr bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Chunki Amir ham chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi, ham mamlakatdagi turli mafkuralar o'rtasidagi kurashga qarshi tura olishi kerak edi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Amir Olimxonning Afg'onistondagi muhojirligi nomli maqolani tayyorlashda bir qancha adabiyotlar o'rganib chiqildi. Dastlab, Aynan shu davrda yashagan va o'z ko'zi bilan ko'rgan jadidchilar va boshqa ayrim siyosatchilar xotiralari va asarlaridan foydalanildi. Masalan, Ahmad Zakiy Validiyning "Bo'linganni bo'ri yer", Amir Olimxonning "Buxoro xalqining hasratli tarixi" shuningdek asosiy manba sifatida Said Olimxonning o'g'li Sayyid Mansur Olimiyning "Buxoro-Turkiston beshigi" asarlaridan foydalanildi. Shu bilan birgalikda zamonaviy tarix fani tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy ishlaridan ham yetarlicha foydalanildi. Ularga Xolboev Sotimjonning "Buxoro amirligining oltin xazinasi", Mannonov A. M, Abdullayev N.A, Rashidov R. R Afg'oniston tarixi va boshqa asarlarni

aytish mumkin. Bundan tashqari Kamoliddin Abdullayevning maqolalari, Freyzerning “Bosmachilar” asari va Andrew Chuanning Afg’oniston amiri Omonullaxon haqidagi maqolalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda qiyosiy taqqoslash va tanqidiy tahlil metodlaridan ko‘proq foydalanildi. So‘ngi amir Said Olimxonning bolsheviklarga qarshi kurashda yordam olish uchun Afg’onistonga yuzlanishi va uning Afg’oniston amirligiga muhojirligi. Afg’onistonda o‘tkazgan muhojirlikdagi hayoti obektiv ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Amir Olimxon hukmronligining so‘ngi yillarida ichki ziddiyatlar va chor Rossiyasining bosimi nihoyatda kuchayib ketadi. Hattoki amirlikni tugatish uchun harakatlar ham boshlab yuboriladi.

Lenin va Trotskiyning buyrug‘i bilan Buxoroni sovetlashtirish vazifasi ishonib topshirilgan Mixail Frunze 1920-yil 28-avgustda o‘z armiyasi bilan Samarqandga keldi. Buxoro amirligiga to‘satdan shiddatli hujum uyushtirib, uni bosib olish rejasini Bolsheviklarning ishongan generali Mixail Frunze tuzib chiqdi. Rejaga ko‘ra, qizil armiya Buxoro amirligiga besh tarafdin hujum qilib, shaharni o‘rab olishlari kerak edi. Hujum boshlangach sovetlar tez orada Chorjo‘y, Karmana, Kitob va Shahrisabz shaharlarini egallab olishgach, Buxoro shahri qurshovda qoldi. Amir Olimxon o‘z asarida bu urush 4 kun bo‘lib, nihoyatda dahshatli bo‘lganligini aytib o‘tgan. [2, 9]

Vayronagarchiliklarni to‘xtatish maqsadida Amir Olimxon shaharni tark etishga majbur bo‘ldi. U bilan afg‘on elchisi Abdushukrxon va Afg‘onistonning Toshkentdagi elchisining ov boshlig‘i Muhammad Aslamxon, afg‘on harbiy qozisi va yigirma besh ming nafardan iborat Buxoro xizmatchi va askarlari, shuningdek, afg‘on askarlari va mansabdorlari amirga hamroh bo‘lishdi. Yo‘lda bir necha marta qizil armiyaga qarshi janglar qilib, daslab G‘ijdivonga so‘ng sharqiy Buxoro hududidagi Hisor viloyatiga keldi va u yerda olti oy davomida bolsheviklarga qarshi kurashga boshchilik qildi. Sharqiy Buxoroda Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegi va Davlatmandbek devonbegilar asosiy yetakchilar hisoblanib, Amir Olimxon ularni qo‘shinga bosh qilib o‘zi harbiy yordam olish uchun Afg‘onistonga yo‘l oladi. [2, 10]

Bu ma‘lumotdan aniqki, Buxoro amirining Afg‘onistonga ketishdan asl maqsadi o‘z oilasi, ayollari va bolalarini saranjom qilish, jang tayyorgarligini ko‘rish, afg‘on va boshqa musulmon mamlakatlaridan ko‘mak olish bo‘lgan. Chunonchi, Hoji Hazratqulbek va uning qavmidan bo‘lgan ba‘zi ulug‘zodalar, shuningdek amir Olimxon saltanati davrida u bilan aloqada bo‘lgan yoki uning muxojirlik yillarida amir bilan hamsuhbat bo‘lgan kishilarning guvohlik berishlaricha, amir Olimxon Afg‘onistonga kuch to‘plash uchun vaqtinchalik kelgan edi. U Afg‘onistonga borishdan oldin, Afg‘oniston podshohi amir Omonullaxondan xarbiy yordam so‘ragan. Omonullaxon afg‘on ziyolilaridan bo‘lgan Abdulhodixon Dovniy boshchiligidagi hay‘atni Buxoroga yuborib, unga harbiy yordam va‘da qildi hamda harbiy yordam masalasida o‘zaro kelishib olish uchun uni Afg‘onistonga taklif qilgan.[3, 63]

Shunday qilib Said Olimxon 1339-yilning (1921) jumadus-soniy oyining yigirma ikkisida, chorshanba kuni Ko‘lob viloyati orqali Amudaryodan kechib o‘tdi va Afg‘oniston hududiga utib ketdi. Afg‘on ma‘murlari amirni Abdunazarbegi degan joyning markaziga olib boradi. U joyda Muhammad A‘lamxon amirni kutib oladi. Ikki kun u yerda turib keyin Qatag‘on hududiga yo‘l oladi va noib Orinxon bilan uchrashadi. Asosiy maqsadi Afg‘oniston amiri bilan tezroq uchrashish va amirdan bolsheviklarga qarshi kurash uchun harbiy yordam olish bo‘lgan Said Olimxonga “Hayot-ul-obod” degan shohona bog‘dan joy qilib beriladi va u yerda 35 kun qolib ketadi. Toshkentdagi afg‘on elchixonasi mirishkori Muhammad Aslamxon Afg‘oniston amiri Omonulloxon vakili sifatida Said Olimxon bilan uchrashdi va Omonulloxon bilan va‘da qilingan xarbiy yordam bobida muzokara olib borish uchun amirni poytaxt Kobulga olib bordi. Ammo amirga taxminan 100 ming nafar amirlik aholisi hamroh bo‘lib kelishgan edi. Shulardan eng obro‘li amaldorlar va navkarlardan 500 nafarini ajratib olib o‘ziga hamroh qildi. Qolgan qismi esa o‘z oilalari bilan Afg‘onistonning Balx, Mozori Sharif, Jurjon, Foryob, Samangan, Xonobod, Kunduz, Taxor, Badaxshon, Kobul, Qandahor, Hirot, Paktiyo, Nangarxor viloyatlariga joylashtirdi. [3, 64-65]

Amir Olimxon qo‘l ostidagi 500 kishi bilan xijriy 1339-yil o‘n sakkizinchi ramazonda 4-shanba kuni Kobuldagi Murodbek qal‘asiga kelib joylashadi. O‘z asarida Said Olimxon bir oy davomida mehmon qilinganini va shu vaqt oralig‘ida bir-necha marta Omonullaxon bilan uchrashganini aytib o‘tgan. Ammo berishi kerak bo‘lgan harbiy yordamdan esa darak bolmaydi. Ko‘rinib turibdiki, amir muhojirlikda yurib o‘z vatani ozodligi uchun kurashayotganlarning harbiy ta‘minoti uchun yordam qidirmoqda edi. Ammo Afg‘oniston amiri Omonullaxon yaqinlashib kelayotgan uchunchi ingliz-afg‘on urushida Rossiya bolsheviklariga suyanish maqsadida zimdan Buxoro amiriga yordam berish niqobi ostida bolsheviklarga

yordam berganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga dalil sifatida Omonullaxonni 1921-yil 28-fevralida Rossiya bilan imzolagan do'stlik bitimini aytishimiz mumkin. [4, 171] Bo'lib o'tayotgan voqealar va o'sha davrdagi vaziyatdan ayon bo'ladiki, Omonullaxon o'z tarafidan va Kobuldagi boshqa mamlakatlar elchixonalari tarafidan harbiy yordam eshiklarini Buxoro amiri uchun yopib qo'yadi. Buxoro amirining Afg'onistonga taklif qilinishi va Kobul hukumati tomonidan unga xarbiy yordam va'da etilishi xamda uni chet mamlakatlar elchilari bilan uchrashtirilishi shunchaki siyosiy aldov bo'lib, amirning dushmanlari bo'lmish kommunistlar O'rta Osiyoni qo'lga kiritgunga qadar har tomonidan hujumga duchor etilmasligi va shu muddatda amir Afg'onistonda nazorat ostida bo'lishi, Buxoro mujohidlari kurashdan toliqib qurollarni tashlashi uchun amalga oshirilgan.[3, 64-65]

Balki shuning uchun ham daslab Amir Olimxonning qarargohi tez-tez o'zgartirilib turilgan bo'lishi mumkin. Dastlab Hoshimxon bog'iga, bir yildan so'ng esa Murodbek qal'asi bog'iga ko'chirildi. To'rt oydan so'ng amir Olimxon qarargohi Hashmat qal'asiga ko'chirildi. Oxiri Kobuldan 11 kilometr uzoqlikda joylashgan Fotuh qal'asi amir qarargohiga aylantirildi. Bu joy amir va uning hamrohlariga doimiy yashash uchun bepul berildi. Amir xavfsizligini ta'minlash maqsadida unga Fotuh qal'asidan tashqariga chiqish afg'on hukumati tomonidan man qilingan edi. Agar zarurat yuzasidan tashkariga chiqqanda maxsus bir guruh uni muhofaza qilib yurardi. Shu yo'l bilan amir Olimxonning tashqi dunyo bilan aloqasini uzib qo'yishga harakat qilishgan.

Afg'onistonga kelgan dastlabki kunlarda amir Olimxon o'zining tarafdorlari vositasida Hindiston, Eron va Afg'onistondan shaxsiy puli hisobiga bir qancha qurol-aslaha sotib olib xufiyalari orqali uni Buxoroga yubordi va bu qurollar mujohidlarga yetib keldi. Amir Olimxonning o'g'li Sayyid Mansur Olimiyning asarida shunday ma'lumotlar uchraydi: "Buxoro amirini tutqunlikda saqlash shiddatli tus ola boshladi. Amir Olimxon o'z qo'riqchilari hamrohligida Fotuh qal'asidan tashqariga chiqqanda Kobuldan 11 km uzoqlikdagi masofaga borishi mumkin emasdi, bunga haqqi yo'q edi. Kuz va qish fasllarida u Pagmon yoki Jalolobodga bormoqchi bo'lsa, avval bu to'g'rida afg'on hukumatini ogoh qilib ruxsat olardi. Ixtiyorsiz tutqunlik va Buxoroga yuborilayotgan qurollar musodara etilayotgan qiyin vaziyatda amir Olimxon chora qidirardi. U shu maqsadda qimmatbaho yirik olmoslarga ega bo'lgan bir dona murassa tojini o'ziga in'om qilingan Fotuh qal'asining bir qismini sotib olish va Buxoroga qurol jo'natib turishga ijozat berilishi uchun Omonulloxonga sovg'a qildi. Qimmatbaho yirik olmoslar va boshqa javohirlar bilan bezatilgan bu toj Fotuh qal'asiga o'xshagan qal'alarning bir nechtasini sotib olishga arzir edi". [3, 65] Amir Olimxon Murodbek qal'asida yashayotgan vaqtida Hoji Mirzo devonbegi tomonidan Buxoro davlati xazinasidan olingan uch dona qimmatbaxo javohirlarga ega bo'lgan murassa toji Murodbek qal'asiga olib kelinib amir Olimxonga topshirilgan edi. Amir Olimxon Amudaryoning bu tomoniga qurol uzatishga ruxsat olish uchun tojlardan birini amir Omonulloxonga, ikkinchisini Muhammad Nodirshohga hadya qildi. Uchinchi tojning pulini Afg'oniston, Eron, Hindistondan qurol-aslaha, porox va boshqa jang anjomlarini sotib olish uchun sarf qilgan.[3, 84]

«Ibrohim laqay» nomi bilan mashhur bo'lgan mullo Ibrohimbek o'sha davrda Buxoro jangchilarining katta qismiga lashkarboshilik qilardi. Amir Olimxon Sharqiy Buxoroda yashagan muddat ichida Ibrohimbekka o'xshash yovqur, qo'rqmas kishilarga tayanib, sovetlarga qarshi kurashgan edi. [5, 140-141] Muhammad Ibrohimbek hatto Dushanbe shahrini bolsheviklardan tortib ham oldi.[6, 180-185] Ammo qizil askarlar, G. Frezer bergan ma'lumotlarga qaraganda, shahardan chekinish paytida 50 ming kishini qilichdan o'tkazib ketishganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. [7, 34]

Amir Omonullaxonni amalga oshirgan radikal islohatlari aholining ko'p qismiga yoqmaydi va narozilik asta sekin rivojlanib boradi. Bu narozilik 1928 yildan katta qo'zg'alonga aylanib hattoki 1929-yilda Omonullaxonning hakimiyatdan ketishiga olib keldi. [8, 44-45]

Undan keyin Xabibulloxon 1929-yil 19-yanvarda hokimiyat tepasiga keldi. Buxoro amiriga erkin yurishga ruxsat berdi. Shundan so'ng amir Olimxon istagan joyiga borish, xohlagan kishisi bilan muloqot kilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1929-yil oktabr oyida Afg'onistonda davlat to'ntarishi amalga oshirildi va Muhammad Nodirshoh hokimiyat tepasiga keldi. Uning hukmronlik davrida ham Amir Olimxonga xuddi Omonullaxon davrida yuritilgan siyosat qo'llanildi.

Amir Olimxon Afg'oniston hukumatidan bir necha bor haj ziyoratini amalga oshirish uchun ijozat so'raydi. Ammo Afg'oniston hukumati rad javobini beradi. Hattoki uning o'g'illariga Muhammad Zohirshoh davrida Pokistonga borishga ruxsat etilmaydi. Mulla Ibrohimbek oilasi esa Xamadon Shoh shahid qal'asida hibsdan saqlanadi. Ko'rinib turibdiki Amir Olimxon Afg'onistonda poshpana topmadi

yoki qandaydir yordam ko'rmadi. Balki bir siyosiy mahbus sifatida to umrining oxirgi daqiqalarigacha yashadi. Vatan sog'inchi, dard-alamlar amirning qaddini bukib qo'ydi. Daslab, ko'zi ojiz bo'lib qoldi. Keyinchalik og'ir dardga chalinib 1943 yil 29 aprelda xayotdan ko'z yumdi va Kobul atrofidagi "Shahidoni islom" (islom shahidlari) qabristoniga dafn etilgan. [3, 88-89],[1, 134]

Amirning o'g'li Sayyid Mansur Olimiyning yozishicha Amir Olimxon vafotidan so'ng uning har bir oila a'zolari uchun maosh tayinlangan. Shuningdek amir vorislari ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lganlar. Qanchalik o'zlarini afg'onlarga yaqin hisoblasalar ham, ammo afg'onlarga beriladigan huquqlar ularga berilmagan edi. O'zlari uchun yer, uy sotib ololmasdilar, safarga chiqish man etilgan edi. Faqatgina bosh vazir Doniyor Muhammad Yusufxon davrida Afg'onistonda demokratik islohotlar o'tkazildi. Shu o'rinda Amirning Afg'onistonda tug'ilgan farzandlari va boshqa yaqinlari Afg'oniston fuqorosi sifatida tan olingan. [3-88]

2023 yil 6-7 mart kunlari Toshkentdagi Turon kutubxonasida "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiyaga Amir Olimxonning nabirasi Binafshaxonim Xotun o'g'li va uning turmush o'rtog'i Nuriddin Xotun o'g'li o'z ma'lumotlari bilan ishtirok etdi. Ma'lumot uchun, Binafshaxonim Amir Olimxonning kenja farzandi bo'lmish Said Abdulsattor Olimxonning qizi. Uning turmush o'rtog'i Nuriddin Xotun o'g'lining aytishicha, amir farzandlari dastlab Afg'onistondan, so'ng Turkiyadan qo'nim topgan.

Ular uzoq yillar terichilik, zardo'zlik bilan shug'ullangan. Ba'zilar Amerika, Germaniyada ham istiqomat qiladi. Biroq, amir avlodlarining markazi bugun - Turkiya, Gaziantep viloyati. O'sha erda Amir Olimxon farzandlarining qabrlari mavjud, nabiralari esa ushbu hududda istiqomat qilib keladi. [8]

Xullas Amir Said Olimxon vatandan yirokda bo'lsada, dushman bilan jehod qilish to'g'risidagi qarorini o'zgartirmadi. Yetti yil mobaynida Buxoroning g'arbiy va sharqiy xamda shimoliy viloyatlarida ruslarga qarshi kurashayotgan mahalliy kuchlarga sirdan ko'mondonlik qilib turdi va imkon topdi deguncha ularga Hindiston, Eron va Afg'onistondan yashirincha qurol olib yetkazib berganligini quyida guvohi bo'ldik. U o'zining bor imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildi. Afsuski uning niyati amalga oshmadi. O'zi bilan kelgan Buxoro aholisi ahvolidan doimiy xabardor bo'lib, ularning Afg'onistondagi hayoti uchun yordam berib turdi. Amir Olimxonning o'g'li Sayyid Mansur Olimiy shunday yozadi: "Amir Olimxon ikkinchi jaxon urushi yillarida Afg'oniston davlat vaziri bo'lgan Ahmadshohga shunday degan edi: «Afg'onistonga kelganimga 23 yil bo'ldi. Shu davr ichida ko'p g'urbat va musibatlarni boshdan kechirdim. Lekin vatan yodi bir muddat ham qalbimni tark etmadi. Vatan yodi bilan yashadim va vatan yodi bilan o'laman. «Amir Olimxon qo'lidagi kimmatbaxo uzugini Axmadshoxga sovg'a qilgan edi.» [3, 87] Amir Olimxonning ayrim zamondoshlari va ba'zi tarixchilar Said Olimxonni zolim va xoin hukumdor sifatida tavsiflashadi. Ammo amirning say harakatlaridan buning qanchalik xato ekanligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki Amir Afg'onistonga bolsheviklar bosqinidan qochib kelmadi, balki ularga qarshi yordam so'rash maqsadida kelgan edi va bu yordamni avvalo amir Omonulloxon taklif qilgan edi. Uni asl maqsadini bilmasdan kelgan so'ngi amir Olimxon Afg'onistonda siyosiy tutqinga aylanib qolgan edi.

Reference/Iqtiboslar/Сноску

1. Холбоев Сотимжон. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. —Т.: Фан, 2008. 132.6
2. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг хасратли тарихи. - Т.: Фан, 1991. 9.6
3. Саййид Мансур Олимий. Бухоро - Туркистон бешиги. Бухоро, 2001
4. Mannonov A. M, Abdullayev N.A, Rashidov R. R Afg'oniston tarixi T.- 2018
5. Ahmad Zakiy Validiy. Bo'linganni bo'ri yer. T.-1997
6. Камолиддин Абдуллаевнинг От Синтсиана до Кхорасана. из Истории Среднеазиатской Эмиграции 20 века, Душанбе.: «ИРФОН» -2009
7. Фрейзер Г., Босмачилар. Лондон-1987. 34-бет.
8. Andrew Chua "The Promise and Failure of King Amanullah's Modernisation Program in Afghanistan" The ANU Undergraduate Research Journal, - Australia, Canberra.: ANU Press 2014. 44-45
9. <https://rost24.uz/>